

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Diloromxon Nomonovna

Qo‘qon davlat pedagogika institutiti o‘qituvchisi

Abdullajonova Shahnoza Akbarovna

Qo‘qon davlat pedagogika institutiti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan darslardan foydalanishning samadorligi tahlil qilingan. Integratsiya tushunchasi, yurtimizda ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar, integratsiya masalasida fikr bildirgan olimlarning qarashlariga ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Jahon ta‘lim tizimida integratsiya masalasining milliy ta‘limga olib kirayotgan yangiliklari, fanlararo aloqaning shakllanishi yuzasidan qarashlar bayon qilingan. Fanlararo aloqani o‘rganib chiqqan holda boshlang‘ich sinflardagi integrallashgan darslarning mohiyatini ochib berilgan

Kalit so‘z va iboralar: integratsiya, aloqadorlik, munosabat, boshlang‘ich ta‘lim, aloqa, sifat, samaradorlik, o‘quv, ta‘lim, fan.

Аннотация В статье анализируется эффективность использования интегрированных уроков в начальных классах. Также кратко затронуты понятие интеграции, меры, направленные на повышение качества образования в нашей стране, а также мнения ученых, высказавших свое мнение по проблеме интеграции. Представлены новации, которые привносит в отечественное образование проблема интеграции в мировую систему образования, а также взгляды на формирование междисциплинарной связи. Сущность интегрированных уроков в начальных классах раскрывается через изучение межпредметных связей.

Ключевые слова и фразы: интеграция, актуальность, отношение, начальное образование, коммуникация, качество, эффективность, обучение, образование, наука.

Annotation This article analyzes the effectiveness of using integrated lessons in primary grades. The concept of integration, measures aimed at improving the quality of education in our country, and the views of scientists who expressed their opinions on the issue of integration are briefly touched upon. The innovations that the issue of integration brings to national education in the world education system, and views on the formation of interdisciplinary communication are outlined. The essence of integrated lessons in primary grades is revealed by studying interdisciplinary communication

Keywords and phrases: integration, connection, attitude, primary education, communication, quality, efficiency, learning, education, science.

KIRISH. Hozirgi kunda jamiyatimizning har bir sohasida eng ko‘p qo‘llanilayotgan atama bu – integratsiyadir. Shu qatorida ta‘limni integratsiyalashga oid ko‘plab ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Bu tushunchani boshlang‘ich ta‘limga kiritilishi endigina jamiyatni tushunishga va uning haqiqiy, jonkuyar a‘zosi bo‘lib yetishishga xizmat qiladigan murg‘ak qalb sohiblariga atrof muhit haqidagi bilimlarni to‘liq va aniq qilib berishga sharoit yaratadi. Integratsiya jarayoni orqali kichik maktab o‘quvchilari olamni bir butunligicha qabul qilish bilan xarakterlanadi. Ularning aqliy salohiyati, dunyoqarashini boshlang‘ich ta‘limdanoq kelajakka raqobatbardosh, o‘tkir zehni qilib tarbiyalash integratsiyaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Yurtimizda yoshlarning bilim olishlariga keng imkoniyatlar yaratilgan va bular qonuniy asoslarga ega. Muhtaram Prezidentimizning 2018-yil 5- sentyabrdagi “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931 sonli qarori intellektual, yuksak ma‘naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Jahonda globallashuv jarayonining jadal sur‘atlarda rivojlanib borish sharoitida ta‘limtarbiya oldiga qo‘yiladigan vazifalar sifat jihatidan yangilanishni, kam vaqt sarflab, ko‘p va kerakli bilimlar berish imkoniyatlarini izlab topishni va ularni ilmiy jihatdan ishlab chiqishni nazarda tutadi. Qo‘yilgan bu savollarga darslarni, bilimlarni integratsiyalash orqali erishish mumkin. Hozirgi vaqtda dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan Buyuk Britaniya, Koreya va Shveysariya, Avstraliya Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Gong-Kong va Germaniya, Vengriyada turli fanlarni integrativ shaklda o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Ta‘lim sohasida integratsiya masalalari bilan bir qator chet el va o‘zbek olimlari T.Kun va V.S.Stopin, N.N.Skatkin, I.Y.Lemer, Y.K. AJeksyut, Y.K. Babanskiy, R Mavlayanova, M, Shomaxmudova tadqiqot ishlari olib borganlar. Davlat ta‘lim standartlari qabul qilingach, ta‘lim mazmuni qisman yangilandi. Davlat ta‘lim standarti talablari asosida yangi o‘quv dasturlari va darsliklar ish lab chiqildi.

Lekin kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv rejasida o‘quv predmetlarning soni ortib ketgan. Chunonchi, 1992-yilga qadar o‘quv rejasida fanlarning soni 21 tani tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda esa o‘quv rejasida 27 ta o‘quv fani mavjud. O‘quv fanlari miqdorini ko‘paytirishi o‘quvchining bilim darajasini oshirishga asos bo‘la olmaydi. Chunki:

- o‘quv fanlari ko‘paygan sari o‘quvchilarga taqdim etiladigan bilimlar maydalashib bormoqda;
- o‘quv darsliklarda takror materi-allarning miqdori ortmoqda; o‘quvchining ijtimoiy tajribasiga kirmay qolayotgan bilim va tushunchalar ko‘paymoqda;
- DTSlari bilan o‘quv dasturlari orasida nomuvofiqlik vujudga kelmoqda.

Hukumat tomonidan qabul qilingan boshlang‘ich ta‘lim Davlat ta‘lim standartida 4 ta ta‘lim sohasi, ya‘ni “Ona tili”, “Matematika”, “Tabiat”, “Inson va jamiyat” ta‘lim sohalari berilgan holda bugungi kunda o‘quv rejasida 10 ta o‘quv predmeti mavjud.

Bu sohada jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Singapur ta’lim tizimida boshlang‘ich sinflar uchun bor-yog‘i 4 ta o‘quv predmeti mavjud ekan. Ular “Ona tili”, “Matematika”, “Estetika” hamda “Jismoniy tarbiya”. Ma’lumki, ta’lim jarayonida muayyan o‘quv fani “Ona tili”, “Tarix”, “Adabiyot” kabilarga oid bilimlar bilan bir qatorda xalqning ijtimoiy tajribasi, til boyligi, ma’naviy, madaniy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari bilim va tushunchalar shaklida o‘rgatilishi lozim. Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘daklardan fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini ta’kidlaganlar. Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham boshlang‘ich ta’limning integrativ xarakterini, o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyatining integrativ yo‘nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, integrativ yondashuv nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgandagina bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi samarali bo‘ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslarning asosi keng qamrovli tushunchalarni o‘quvchilarga o‘rgatilishidir. Tushunchalarning turli jabhalarda qo‘llanilishi o‘quvchilarning qiziqishini ortiradi. Qiziqish bu- olingan bilimlarni xotirada uzoq muddatga saqlanilishini kafolatlaydi. Qiziqish-shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli bo‘lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Bunda insonning o‘ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda qo‘l keladi, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishiga yordam beradi. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro‘yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi. Qiziqish shaxsning borliqqa tanlab munosabatda bo‘lishida, o‘ziga xos qaror qabul qilishida, o‘zini o‘zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan to‘siqlarni yengishida ifodalanadi. Qiziqishlar shaxsiy va ijtimoiy, bevosita va bilvosita, keng va tor, beqaror va barqaror bo‘ladi. Qiziqish sinchkovlik, qiziquvchanlik, bilishni o‘z ichiga oladi. Odamlarni shaxsiy qiziqishini idora qilishga o‘rgatish, bu yo‘nalishda mashqlantirish, treninglar, testlardan foydalanish intiluvchan, to‘liqmas xislatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shaxsning individual xususiyati bo‘lgan qiziqish-havaslar uning hamma psixik jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Kishining qobiliyatlarining o‘sishi ham ma’lum darajada undagi qiziqishlar bilan belgilanadi. Bizdagi idrok etish, esda qoldirish, esga tushurish, xayol, tafakkur va iroda jarayonlari qiziqish orqali faollashadi. Qiziqish kishi diqqatining kuchli va barqaror bo‘lishiga yordam qiladi, bizning tuyg‘u-hissiyotlarimizning, shuningdek, qiziqishlarimizning ham kuchli va barqaror bo‘lishiga yordam beradi. Integratsiyalashgan darslarda o‘quvchilarning

psixik jarayonlari haqida ko‘plab olimlar izlanishgan. Maktab ta‘limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida olim Y.A. Samarinning assotsiativ tafakkur to‘g‘risidagi fikrlari olinishi mumkin. Bu fikrlarning mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o‘xshatish, bilimlar tizimi esa o‘xshatishlar tizimidir.

Y.A. Samarin o‘xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi:

- ✓ lokal (mahalliy, ma‘lum bir joy, narsa bilan chegaralangan);
- ✓ biror tizimga tegishli bo‘lgan;
- ✓ tizim ichidagi;
- ✓ tizimlar orasidagi;
- ✓ aqliy faoliyat darajalarini o‘xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish

xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Y.A.Samarin g‘oyalariga ko‘ra bu punktlar asosida darslar olib borilsa, o‘quvchilar ma‘lumotlarni xotirada tezroq va uzoq muddatga saqlab qolishini takidlagan. Ya‘niki, berilayotgan integratsion bilimlar bolaning atrofidagi tabiat muhit bilan bog‘liq bo‘lgan, murakkablikni o‘z ichiga olmagan va bola har kuni duch kelayotgan tushunchalar majmui mahalliy tasavvuridir.

I.G.Pestalossi katta didaktik material asosida o‘quv fanlarining turli yo‘nalishdagi o‘zaro bog‘liqliklarini yoritib berdi. Bunda u quyidagi tamoyillarga amal qildi: shaxsning o‘z qadrqimmatini anglashi; bolani tabiat ato etgan qobiliyat va imkoniyat asosida tarbiyalash; bolani har tomonlama tarbiya etishga qaratilgan ko‘rgazmalilik. U bir fanning ikkinchi fandan ajratib olinishidagi alohida noo‘rin jihatlarini ham asoslab berdi. O‘z davrida Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy kabi mashhur G‘arb ilg‘or pedagoglari ma‘lum muddat ta‘lim tizimida ustuvor o‘ringa ega bo‘lgan suhbatga asoslangan metodlarni keskin qoraladilar va bu metodlarning mutlaqligini inkor etdilar. Ular o‘z qarashlari hamda tajribalari bilan bu metodlarni amaliy va ko‘rgazmali metodlar bilan to‘ldirish shartligini isbotlashga harakat qildilar.

Bugungi kunga kelib, an‘anaviy o‘qitish o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtai nazardan qayd etish lozimki, XX asrning yakuni texnokratik taraqqiyotga nuqta qo‘yib, gumanitar madaniyatning ibtidosiga yo‘l ochdi. Kuch va qo‘rquv mantig‘ining ong va muhabbat falsafasiga almashingani XXI asrning o‘ziga xos strategiyasidir. Demak, ta‘lim-tarbiyada ham amalga oshiriluvchi islohotlar mana shu mantiqqa mos tarzda, jamiyatga xizmat ko‘rsatishi lozim. Bu o‘rinda noan‘anaviy o‘qitish shakli – integratsiyaning ahamiyati yanada oshib boradi. Negaki, integratsiyaning darajasiga qarab, uning qo‘llanilish texnikasiga ko‘ra, amalga oshirilgan texnologiyaning istiqbolini belgilash mumkin bo‘ladi.

Zero, integratsiya yetarlicha namoyon bo‘la olgan, turli xarakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatiy holatga o‘tishda asosiy omil bo‘lib yuzaga chiqa oluvchi faktor hisoblanadi. Integratsiya chuqur, noan‘anaviy ta‘lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o‘quv materialining uyg‘unlashuvini o‘zida namoyon etadi. Integrativ ta‘limni yo‘lga qo‘yishdan oldin, uning tasnifi – integrativ ta‘limning sinflarga bo‘linishi (klassifikatsiya) borasida ma‘lum tushuncha hosil qilish lozim bo‘ladi. Pedagogika fanlari

doktori, professor R.A.Mavlonovada bu tasnif quyidagicha ifoda etiladi: chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar; – asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar; – umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar; – fan evolyusiyasi bilan bog‘liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish uslublari, olamning ilmiy ko‘rinishini o‘rganish asosidagi kurslar; – kompleks ob’ektlar asosida; – turli muammolar asosida; – faoliyat asosida.

Binobarin, mazkur tadqiqotda urg‘u berib qaralayotgan boshlang‘ich ta’limdagi integratsiya o‘z atrofida: o‘qish, matematika, tabiatshunoslik, rasm, mehnat singari o‘quv fanlari hamda ingliz tilini jamlaydi. O‘z darsini integratsiyalashtirish usulda tashkil etayotgan o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yoshi, aqliy rivojlanish darajasi va albatta qiziqishlari doirasiga mos tarzda vosita va usullar tanlaydi. Integratsion dars loyihasining tematikasi o‘quv dasturining qaysidir masalasiga tegishli bo‘lishi mumkin, bunda alohida qaralgan iqtidorli o‘quvchilar va umuman, sinf o‘quvchilaridagi mazkur mavzu yuzasidan o‘zlashtirish darajasini belgilovchi bilimni chuqurlashtirish, o‘rganish jarayonini differensiallashtirish maqsad qilib olinadi. Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi:

✓ birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon;

✓ ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik va nihoyat o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o‘quv predmetlari mazmunini eng kamida ta’lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o‘rganilayotgan o‘quv predmetlari doirasida ma’lum didaktik birliklar orasida o‘rnatilib, ularni o‘rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi, bundan farqli o‘laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o‘quv predmeti yoki integratsiyalab o‘rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Bu o‘z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko‘rsatuvchi, etuk shaxsni shakllantirishga imkon beradi. Zero u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi.

Bu operatsiyalar o‘rganilayotgan ob’ektni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab etish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo‘lgan tabaqalashtirish (differentsiatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish

integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Demak, darslarni integratsion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sarmazmun o‘tishini, balki o‘quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Fanlararo bog‘liqlik, fanlararo falsafiy masalalarni shaxsan his etmay turib, o‘quvchiga integratsion mashg‘ulotni taqdim etmaslik to‘g‘ri bo‘ladi, zero, anglanmagan integratsiya o‘quvchi ongidagi bilish jarayonini mavhum holatga, u orqali chalkash xulosalarga taqab qo‘yadi. [7. 120-128-betlar]

Integratsiya darslari bugungi o‘quvchilar uchun ayni muddao bo‘lib, ularni zamon bilan birgalikda darslar orqali rivojlanishiga olib keladi. Ya’ni integratsiyaga oid, milliy dasturimiz asosida tuzilgan qo‘llanma kitoblardagi har bitta mashqlar, rasmlar, turli qiziqarli savollar o‘quvchilarni har tomonloma chet mamlakatlar yoshlari bilan ayni boshlang‘ich sinfdan boshlab raqobatlashaoladigan darajaga olib keladigan darsliklar tuzilgan. Yondosh fanlarni uyg‘unlashtirish asosida tuzilgan kurslar yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo‘nalishlar hosil bo‘lishiga olib keldi.

Integratsiya - “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, u tafakkurning o‘rish jarayonlari turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish, alohida tizimlarning yaqinlashishi bog‘lanishi va yagona narsaning yaratilishidir. Maktabda o‘qitiladigan barcha fanlarda integratsiyalashning ma’lum bir imkoniyatlari aks etib, darsni integratsiyalashgan holda tashkil etish bir qator shartlarga bog‘liq. Shuning uchun pedagog va metodistlar yangi dasturni yaratishdan avval, ana shu holatlarning barchasini e’tiborga olishlari lozim. Buning uchun eng avvalo o‘qituvchi sinfning tayyorgarlik darajasini, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olishi zarur. Jahon ta’lim tizimini o‘rgangan holda, O‘zbekistonda integratsiyalashgan ta’lim 2022-yildan boshlang‘ich sinflarga joriy etildi. Bu jarayon boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy natijalar ko‘rsatdi.

XULOSA. Inson va butun jamiyatning shakllanish, rivojlanish sharti doimo ta’lim bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Bugungi kunda 21-asr ta’lim tizimi ancha murakkablashgan va texnologiyalar rivojlangan asri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayni damda istalgan sohamizda yangilik, imkoniyat, qulayliklarni ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek O‘zbekistonda ham ta’lim sohasida islohat, innovatsiyalar amalga oshirilmoqda va qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Fanlarni o‘zaro integratsiyalashdan asosiy maqsad o‘quvchilarga berilayotgan bilimlar takrorlanishining oldini olish, bir xillikka barham berishdir. Ta’lim integratsiyasi chuqur ildizi

klassik pedagogikaga borib taqaladi va o‘zaro fanlararo bog‘liqlik, umumiylikni g‘oyasini ilgari suradi, o‘quv materialini mazmunini tahlil qilish, shuningdek tabiat bilan uzviy bog‘liq holda yaxlit o‘rganish tushuniladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, integratsiyani o‘qituvchilarning turli fanlar bo‘yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbai deb baholash mumkin. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi bo‘lmay, balki fanlararo sintez bo‘lib, alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog‘lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir. Integratsiya ta‘lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog‘liqligini ko‘rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog‘lik yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o‘rgatish kerak. Bu maqsadni boshlang‘ich maktab amalga oshirishi kerak. Integratsiya-predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashni bilimlar orasida bilmagan joylarni to‘ldirish, ular orasidagi aloqalarni o‘rganish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J. G‘. Yo‘ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.:2010
2. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013.
3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang‘ich ta‘limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.
4. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova "Pedagogik mahorat" O‘quv qo‘llanma. T. Fan va texnologiya. 2012 yil
5. R.A.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.M.Xoliqberdiyev. Pedagogika. Darslik. T.: O‘qituvchi 2008-yil
6. R.A.Mavlonova, B.Normurotova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. "Fan" 2008 y.
7. S.Nishonova, M.Imomova, R.Hasanov. Pedagogika tarixi. Darslik. T. O‘qituvchi. 1996 yil.
8. Z. K. Ismailova. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. — T.: "Fan", 2001.